

ARAB VA O'ZBEK TILLARI O'RTASIDA TARJIMA JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT VA INSON TARJIMONLARNING AFZALLIKLARI HAMDA KAMCHILIKLARI

ADVANTAGES AND LIMITATIONS OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND HUMAN TRANSLATORS IN THE TRANSLATION PROCESS BETWEEN ARABIC AND UZBEK

البشري والمترجم الاصطناعي الذكاء بين والأوزبكية العربية اللغتين بين الترجمة وعيوب مزايا

Akbarova Madinaxon

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Tarjima nazariyasi va amaliyoti (arab tili) yo'nalishi talabasi
madinamirzayevna4@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjima jarayonida sun'iy intellekt va inson tarjimonlarning o'zni, afzalliklari hamda kamchiliklari tahlil qilinadi. Maqolada shuningdek, arab va o'zbek tillarining grammatik hamda semantik farqlari sun'iy intellekt tarjimasiga qanday ta'sir ko'rsatishi tahlil qilinadi. Inson tarjimonning kuchli jihati ham matnning ruhini, ohangini va madaniy mazmunini chuqur his etishidadir. Sun'iy intellekt esa tezlik va aniqlikda ustunlik qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kelajakda eng samarali tarjima inson tafakkuri va sun'iy intellekt texnologiyasining uyg'unlashuvida namoyon bo'ladi.

Kalit so'zlar: sun'iy intellekt, inson tarjimoni, avtomatik tarjima, madaniy kontekst, mashina tarjimasi, lingvistik tahlil, texnologik rivojlanish, Google Translate, ChatGPT, DeepL

Abstract. This article analyzes the role, advantages, and limitations of artificial intelligence and human translators in the translation process between Arabic and Uzbek. It also examines how the grammatical and semantic differences between Arabic and Uzbek affect the quality of AI-based translation. A human translator's strength lies in their ability to deeply perceive the spirit, tone, and cultural meaning of the text, while artificial intelligence excels in speed and accuracy. The findings indicate that in the future, the most effective translation will emerge from the synergy between human intellect and artificial intelligence technologies.

Keywords: artificial intelligence, human translator, automatic translation, cultural context, machine translation, linguistic analysis, technological development, Google Translate, ChatGPT, DeepL

Аннотация. В данной статье анализируются роль, преимущества и недостатки искусственного интеллекта и человеческого переводчика в процессе перевода между арабским и узбекским языками. Также исследуется, как грамматические и семантические различия арабского и узбекского языков влияют на качество перевода, выполняемого искусственным интеллектом. Преимуществом человеческого переводчика является его способность глубоко

чувствовать дух, тон и культурный контекст текста. Искусственный интеллект, в свою очередь, превосходит по скорости и точности. Результаты исследования показывают, что в будущем наиболее эффективным будет перевод, основанный на гармоничном сочетании человеческого мышления и технологий искусственного интеллекта.

Ключевые слова: искусственный интеллект, человеческий переводчик, автоматический перевод, культурный контекст, машинный перевод, лингвистический анализ, технологическое развитие, Google Translate, ChatGPT, DeepL

KIRISH

So'nggi yillarda texnologiya juda tez rivojlanib, tarjima sohasiga ham katta ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, sun'iy intellekt (SI) yordamida ishlaydigan avtomatik tarjimonlar — masalan, Google Translate, ChatGPT, DeepL va boshqalar — bugungi kunda millionlab foydalanuvchilarga xizmat qilmoqda.

Biroq, tarjimonlik faqat so'zlarni bir tildan boshqasiga o'tkazish emas, balki mazmun, uslub, madaniy nozikliklarni to'g'ri yetkazish san'atidir. Shu sababli, inson tarjimon va sun'iy intellekt o'rtasida qiyoslash qilish bugungi kunda muhim masalalardan biridir.

Ushbu maqolada biz arab va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjimada inson va sun'iy intellektning afzalliklari va kamchiliklarini tahlil qilamiz.

ASOSIY QISM

1. Sun'iy intellekt tarjimasining afzalliklari

So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalari tarjima jarayonini tubdan o'zgartirdi. Al-Khouri (2021)⁶⁸ ta'kidlaganidek, mashina tarjimasi bugungi kunda xalqaro aloqa, ta'lim va diplomatiya sohalarida tezkor vosita sifatida keng qo'llanmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi dasturlar, masalan, Google Translate yoki DeepL, foydalanuvchiga bir necha soniya ichida katta hajmdagi matnni tarjima qilish imkonini beradi. Bu tizimlar doimiy o'rganish (machine learning) orqali o'z tarjima sifatini yaxshilab boradi.

Hutchins va Somers (1992)⁶⁹ o'z tadqiqotlarida mashina tarjimasining asosiy afzalligi — tezlik va foydalanish qulayligi ekanini qayd etganlar. Shuningdek, bu tizimlar til o'rganishda yordamchi vosita sifatida ham katta ahamiyatga ega. Arab va o'zbek tillari o'rtasida sun'iy intellekt dasturlari yordamida tez tarjima qilish imkoniyati o'quvchi va tadqiqotchilar uchun katta yengillik yaratadi.

2. Sun'iy intellektning kamchiliklari

Biroq sun'iy intellekt hali inson tafakkurini to'liq almashtira olmaydi. Nida va Taber (1982)⁷⁰ ta'kidlaganidek, tarjima faqat so'zma-so'z o'tkazish emas, balki ma'noni, uslubni va madaniy kontekstni to'g'ri yetkazish san'atidir. Mashina tarjimasi

⁶⁸ Al-Khouri, Ali (2021). Artificial Intelligence and Language Translation: Opportunities and Challenges. Dubai: Emirates Center for Strategic Studies

⁶⁹ Hutchins, W. John & Somers, Harold L. (1992). An Introduction to Machine Translation. Academic Press.

⁷⁰ Nida, Eugene A., & Taber, Charles R. (1982). The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill.

esa bu jihatdan zaiflikka ega: u arab tilidagi diniy, tarixiy yoki obrazli iboralarni noto'g'ri talqin qilishi mumkin.

Masalan, arabcha “يَدًا” (qo'lma-qo'l) iborasi mashina tarjimasida “qo'lda” deb berilishi mumkin, aslida bu ibora “hamkorlikda, birgalikda” degan ma'noni bildiradi. Al-Jarf (2020) ⁷¹bu kabi xatolar arabcha–inglizcha mashina tarjimalarida keng uchrashini tahlil qilib, SI tizimlari kontekstni to'liq tushunishga qodir emasligini isbotlagan.

Shuningdek, arab tili boy morfologiyaga ega, o'zbek tili esa agglutinatív tuzilishga ega bo'lgani sababli, mashina tarjimasí so'z shakllarini aniqlashda xatolarga yo'l qo'yadi

3. Inson tarjimonning afzalliklari

Inson tarjimoni tilni nafaqat grammatik, balki madaniy jihatdan ham his etadi. Arab va o'zbek tillaridagi madaniy tafovutlar sababli tarjimonning sezgirligi va tajribasi juda muhimdir. Inson tarjimoni matnning ruhini, ohangini va hissiy rangini to'g'ri ifodalay oladi, ayniqsa diniy, adabiy va badiiy matnlarda bu juda muhimdir.

Hatim va Munday ⁷²ta'kidlaganidek, tarjimonning ijodiy yondashuvi matnni jonlantiradi, auditoriya uchun tushunarli va tabiiy qiladi va u madaniyatlararo vositachi bo'lib, matndagi yashirin ma'nolarni ochib beradi. Sun'iy intellekt bu darajadagi badiiylikni hali bera olmaydi.

Masalan, arab tilidagi “الصبر مفتاح الفرج” maqolini mashina tarjimasí “Sabr — yengillikning kaliti” deb tarjima qiladi. Bu grammatik jihatdan to'g'ri, ammo inson tarjimoni uni “Sabr – najot kalitidir” tarzida yanada tabiiy va obrazli ifoda qiladi.

Tarjima bosqichining asosiy maqsadi – talabalarni ingliz tilidan o'zbek tiliga yoki o'zbek tilidan ingliz tiliga matnlarni tarjima qilish uchun zarur bo'lgan tarjimaning asosiy uslub va usullaridan foydalanishga o'rgatish⁷³.

4. Inson tarjimonning kamchiliklari

Inson tarjimoni, albatta, mukammal emas. U vaqt va charchash omiliga bog'liq holda xato qilishi mumkin. Shuningdek, professional tarjimalar iqtisodiy jihatdan qimmatroq. Ba'zi hollarda inson tarjimon sub'ektiv yondashuv sababli matn mazmunini o'zgartirib yuborishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi ⁷⁴hisobotida inson tarjimonlar va sun'iy intellekt tizimlarining birgalikda ishlashi samaradorlikni oshirishi qayd etilgan.

5. Arab va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjimaning o'ziga xosliklari

Arab tili semitik guruhga mansub bo'lib, murakkab fe'l tizimi va so'z yasaliş qoidalariga ega, o'zbek tili esa turkiy tillar oilasiga mansub bo'lib, agglutinatív tuzilishga ega. Shuning uchun sun'iy intellekt uchun bu ikki til o'rtasida sintaktik moslikni topish qiyin. Hatim va Munday shuni ta'kidlaydiki, tillar orasidagi morfologik tafovut mashina tarjimasí sifatini pasaytiradi. . Zoirova, A. (2025)

⁷¹ Al-Jarf, Reima (2020). Machine Translation in Arabic-English Translation Classes: Problems and Solutions. International Journal of Linguistics, 12(2), 45–58

⁷² Hatim, Basil & Munday, Jeremy (2019). Translation: An Advanced Resource Book. Routledge

⁷³ Yo'ldoshev U. (2022). BADIY TARJIMANI O'RGATISHGA BAG'ISHLANGAN MASHQLAR MAZMUNI //TIL VA ADABIYOT TA'LIMI 1-SON.-38 B.

⁷⁴ O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (2023). Sun'iy intellekt texnologiyalarining til sohasidagi qo'llanilishi haqida hisobot. Toshkent.

⁷⁵o'zining maqolasida tarjima bu shunchaki bir tildan ikkinchisiga tarjima qilish emas, balki, madaniyatlar, davlatlararo ko'prik qurish jarayoni ekanligini, har bir til o'ziga xos madaniyat, tarix va mentalitetni aks ettirishini, shu boisdan ham tarjimon faqat so'zlarni emas, balki, ular ortidagi madaniy mazmun-mohiyatni ham to'laqonli ravishda anglay olishi, tushunishi, tinlovchi va so'zlovchi o'rtasida yoxud bir aloqa vositasi, ko'prik vazifasini bajarishi kerakligini, ayniqsa, ikki xil madaniyat vakillari o'rtasidagi aloqa jarayonida madaniy tafovutlar, turlicha qarashlar kelib chiqishi tabiiy hol ekanligini ta'kidlaydi.

Inson tarjimoni esa bu farqlarni tushunib, moslashtirish orqali tabiiy tarjima yaratadi. Shuning uchun arab–o'zbek tarjimasida SI yordamchi vosita sifatida, inson esa asosiy ijodkor sifatida qatnashishi zarur.

6. Sun'iy intellekt va inson hamkorligi

Kelajakda tarjima sohasi inson tafakkuri va sun'iy intellektning birlashuvi orqali yanada mukammal darajaga chiqadi. Al-Khouri fikricha, tarjimon SI'ni o'z ishida tezkor yordamchi sifatida qo'llasa, tarjima jarayoni nafaqat samarali, balki iqtisodiy jihatdan ham foydali bo'ladi. Shunday qilib, arab va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjimada eng to'g'ri yo'l — inson va sun'iy intellektning hamkorlikda ishlashi, ya'ni texnologiya va tafakkurning uyg'unlashuvidir.

XULOSA

Arab va o'zbek tillari o'rtasidagi tarjima — bu nafaqat lingvistik jarayon, balki madaniyatlar, tarix va tafakkurlar uchrashuvi hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, tarjima faoliyatida sun'iy intellekt texnologiyalari va inson tafakkurining o'zaro uyg'unlashuvi muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, sun'iy intellekt tezlik, qulaylik va tahlil imkoniyatlari bilan ajralib turadi, biroq u matnning ruhiy ohangini, badiiy ifodasini hamda madaniy kontekstini to'liq anglay olmaydi.

Inson tarjimoni esa, aksincha, matnning semantik chuqurligini his etadi, uni auditoriyaga moslab, tabiiy va obrazli tarzda yetkazadi. Ammo inson omilining ham cheklovlari bor — vaqt, sub'ektivlik va insoniy xato. Shuning uchun zamonaviy tarjima sohasi uchun eng to'g'ri yo'l — bu inson tafakkuri va sun'iy intellekt texnologiyalarining sinergiyasi, ya'ni ularning bir-birini to'ldiruvchi hamkorligidir.

Kelajakda arab va o'zbek tillarida tarjima sifati aynan shu uyg'unlik orqali yuksaladi. Insonning ijodiy fikri va sun'iy intellektning tezkor tahlil kuchi birlashgandagina, haqiqiy mukammal tarjima natijasiga erishish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Al-Khouri, Ali (2021). Artificial Intelligence and Language Translation: Opportunities and Challenges. Dubai: Emirates Center for Strategic Studies.
2. Hutchins, W. John & Somers, Harold L. (1992). An Introduction to Machine Translation. Academic Press.
3. Nida, Eugene A., & Taber, Charles R. (1982). The Theory and Practice of Translation. Leiden: Brill.

⁷⁵ Zoirova, A. (2025). TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN MADANIY MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR. Наука и инновация, 3(11), 4–7. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/79505>

4. Al-Jarf, Reima (2020). Machine Translation in Arabic-English Translation Classes: Problems and Solutions. International Journal of Linguistics, 12(2), 45–58.
5. Hatim, Basil & Munday, Jeremy (2019). Translation: An Advanced Resource Book. Routledge.
6. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi (2023). Sun'iy intellekt texnologiyalarining til sohasidagi qo'llanilishi haqida hisobot. Toshkent.
7. Zoirova, A. (2025). TARJIMA JARAYONIDA YUZAGA KELADIGAN MADANIY MUAMMOLAR VA ULARGA YECHIMLAR. Наука и инновация, 3(11), 4–7. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/scin/article/view/79505>